

## QASHQADARYO VILOYATIDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK JIHATLARI

*Nurmatov N.E.*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida baliqchilikni rivojlantirishning iqtisodiy-geografik jihatlari tahlil qilingan. Viloyatning tabiiy-geografik sharoiti, suv resurslari va iqlim xususiyatlari baliqchilikni rivojlantirish imkoniyatlariga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, baliqchilik xo'jaliklarining hududiy joylashuvi, ishlab chiqarish hajmi va sohadagi iqtisodiy samaradorlik masalalariga e'tibor qaratilgan. Maqolada baliqchilikni rivojlantirishdagi muammolar, ekologik omillar va sohaga oid investitsion imkoniyatlar tahlil qilinib, istiqboldagi yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qashqadaryo viloyati, baliqchilik, suv resurslari, iqtisodiy geografiya, ekologik omillar, investitsiya.

## ECONOMIC AND GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF FISHERIES IN THE KASHKADARYA REGION

*Nurmatov N.E.*

*Shakhrisabz State Pedagogical Institute*

**Annotation.** This article analyzes the economic and geographical aspects of the development of fisheries in the Kashkadarya region. The impact of the natural and geographical conditions, water resources and climatic features of the





*region on the development of fisheries is studied. Attention is also paid to the territorial location of fisheries, production volumes and economic efficiency in the industry. The article analyzes the problems of fisheries development, environmental factors and investment opportunities in the industry, and gives recommendations on future directions.*

**Keywords:** *Kashkadarya region, fisheries, water resources, economic geography, environmental factors, investment.*

Jahon baliqchilik va akvakulturaning holati (SOFIA) hisobotining 2024 yilgi nashrida ta'kidlanishicha, 2022 yilda dunyoda 223,2 million tonna baliqchilik va akvakultura mahsulotlari ishlab chiqarilgan, bu 2020 yilga nisbatan 4,4 foizga oshgan. Bu hajmga 185,4 million tonna suv hayvonlari va 37,8 million tonna suv o'tlari kiradi. 2022-yilda akvakultura birinchi marta suv hayvonlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi yetakchi sanoat baliqchilik o'rnini egalladi. Sektorda misli ko'rilmagan 130,9 million tonna mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, shundan 94,4 million tonnasi suv hayvonlari bo'lib, dunyodagi umumiy suv hayvonlari ishlab chiqarishining 51 foizini tashkil qiladi.

O'zbekiston agrar sohasini barqaror tizimli rivojlanishiga erishilishi uchun uning barcha tarmoqlarida izchil islohotlar olib borilishi lozim va olib borilmoqda. Ana shunday serhosil sohalardan biri – bu baliqchilikdir. Baliq – inson uchun muhim ozuqa hisoblanadi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini bajarilishida 2021-yil 20-martgacha “Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida go'sht, sut, tuxum va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish” tadbiri rejalashtirilgan. 2020-yil 14-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish” bo'yicha o'tkazilgan



videoselektor yig'ilishida respublikamizda intensiv usulda baliq yetishtirishni rivojlantirish holati past darajadali, baliq ishlab chiqarish hajmini 350 ming tonnaga yetkazish bo'yicha keng ko'llamli chora-tadbirlar amalga oshirish borasida ko'rsatmalar berildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2010–2024-yillar davomida yetishtirilgan baliq hajmini viloyatlar kesimida tahlil qilinganda, Xorazm, Toshkent va Andijon viloyatlari baliqchilikning eng rivojlangan hududlari sifatida ajralib turib, 2024-yilda mos ravishda 32 969 tonna, 19 141 tonna va 21 730 tonna baliq ishlab chiqarilgan (1-+jadval) bo'lib, ushbu uchta viloyat umumiy ishlab chiqarishning **38.5 foizini** tashkil etgan va ayniqsa, Xorazm viloyati yetakchi o'rinda bo'lib, mamlakatda ishlab chiqarilgan baliqning **17.2 foizi** aynan ushbu hudud hissasiga to'g'ri kelgan, shuningdek, Toshkent viloyati **10.0 foiz** va Andijon **11.3 foiz** ulush bilan yuqori natijalarni qayd etgan, bu esa ushbu viloyatlarda baliqchilik sanoat asosida rivojlanganini ko'rsatadi.

O'rta darajadagi ishlab chiqaruvchilar qatoriga kiruvchi Samarqand (19 876 tonna, **10.4%**), Namangan (17 212 tonna, **9.0%**), Jizzax (16 271 tonna, **8.5%**), Sirdaryo (10 551 tonna, **5.5%**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (12 689 tonna, **6.6%**) va Farg'ona (14 073 tonna, **7.3%**) viloyatlari baliqchilikni sezilarli darajada rivojlantirgan bo'lib, ushbu hududlarda ishlab chiqarish hajmi 10 000–20 000 tonna oralig'ida bo'lib, ularning respublikadagi umumiy ulushi **47.3 foizni** tashkil etgan, bu esa baliq yetishtirish hajmining muayyan hududlar bilan cheklanib qolmay, o'rta darajadagi viloyatlarda ham sezilarli rivojlanayotganidan dalolat beradi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududlari kesimida  
yetishtirilgan baliqlar to'g'risida ma'lumot (2010-2024-yillar, tonna)

|  | 2010 | 2015 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|--|------|------|------|------|------|------|------|
|  |      |      |      |      |      |      |      |



|                                          |                  |                   |                    |                    |                    |                    |                    |
|------------------------------------------|------------------|-------------------|--------------------|--------------------|--------------------|--------------------|--------------------|
| <b>O'zbekiston<br/>Respublikasi</b>      | <b>878<br/>4</b> | <b>5985<br/>2</b> | <b>14410<br/>3</b> | <b>17193<br/>3</b> | <b>18527<br/>4</b> | <b>19588<br/>3</b> | <b>19140<br/>0</b> |
| <b>Qoraqalpog'iston<br/>Respublikasi</b> | 584              | 3410              | 14442              | 12637              | 11386              | 12147              | 12 689             |
| <b>Andijon</b>                           | 498              | 2535              | 17415              | 20178              | 21555              | 21150              | 21 730             |
| <b>Buxoro</b>                            | 433              | 1951              | 7082               | 10877              | 10043              | 5950               | 6 166              |
| <b>Jizzax</b>                            | 577              | 1085<br>0         | 13118              | 13687              | 15028              | 15853              | 16 271             |
| <b>Qashqadaryo</b>                       | 435              | 3151              | 5442               | 5323               | 5453               | 5001               | 4 357              |
| <b>Navoiy</b>                            | 109<br>3         | 5610              | 12458              | 12769              | 14077              | 14557              | 9 283              |
| <b>Namangan</b>                          | 400              | 2733              | 8740               | 11997              | 14588              | 15565              | 17 212             |
| <b>Samarqand</b>                         | 81               | 1839              | 12725              | 19535              | 17262              | 18509              | 19 876             |
| <b>Surxondaryo</b>                       | 194              | 1911              | 4497               | 5477               | 6560               | 6807               | 7 082              |
| <b>Sirdaryo</b>                          | 25               | 1822              | 5551               | 6435               | 7214               | 9960               | 10 551             |
| <b>Toshkent</b>                          | 142<br>5         | 1155<br>7         | 9727               | 13239              | 19289              | 24829              | 19 141             |
| <b>Farg'ona</b>                          | 485              | 4025              | 11152              | 12156              | 12495              | 13533              | 14 073             |
| <b>Xorazm</b>                            | 255<br>4         | 8457              | 21754              | 27623              | 30324              | 32022              | 32 969             |

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Yetishtirish hajmi nisbatan past bo'lgan hududlar qatoriga Navoiy (9 283 tonna, **4.8%**), Surxondaryo (7 082 tonna, **3.7%**), Buxoro (6 166 tonna, **3.2%**) va Qashqadaryo (4 357 tonna, **2.3%**) viloyatlari kirib, ularning umumiy ulushi **16.5 foizni** tashkil etgan bo'lib, ayniqsa, Qashqadaryo viloyatining baliqchilikda eng past natijalardan birini qayd etgani e'tiborga molik bo'lib, bu viloyatda 2010-yilda





atigi 435 tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 3 151 tonnaga yetgan, 2020-yilda esa eng yuqori natija – 5 442 tonna baliq ishlab chiqarilgan, biroq 2024-yilga kelib bu hajm 4 357 tonnagacha qisqargan bo'lib, viloyatda baliqchilikning sust rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Qashqadaryo viloyati baliqchilik sohasida boshqa hududlarga nisbatan ancha past natijalarga ega bo'lishining asosiy sabablaridan biri sifatida suv resurslarining yetarli emasligi, tabiiy-geografik sharoitlarning mos kelmasligi hamda baliqchilik xo'jaliklari infratuzilmasining rivojlanmaganligi kabi omillar tilga olinishi mumkin bo'lib, viloyatda mavjud daryo va suv havzalarining cheklanganligi, shuningdek, baliq yetishtirish texnologiyalarining to'liq joriy qilinmaganligi ushbu natijalarga olib kelgan, shu bois, kelgusida Qashqadaryo viloyatida baliqchilikni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, davlat tomonidan subsidiya va investitsiya dasturlarini kengaytirish, mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va intensiv baliqchilik klasterlarini shakllantirish orqali viloyatning ushbu sohadagi ulushini oshirish hamda iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qashqadaryo viloyati baliqchilik sohasida sezilarli o'sishga erisholmagan hududlar qatorida bo'lib, bu jarayonning asosiy sabablaridan biri sifatida suv resurslarining yetarli emasligi, baliqchilik infratuzilmasining sust rivojlanishi, tabiiy-geografik omillar va iqtisodiy sharoitlar tilga olinishi mumkin bo'lib, viloyatda mavjud daryo va suv havzalarining baliqchilikni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatga ega bo'lmaganligi, shuningdek, baliq yetishtirish texnologiyalarining boshqa hududlardagi kabi keng joriy etilmaganligi ushbu sohada past natijalar kuzatilishiga olib kelgan va shuningdek, viloyatda baliqchilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar va fermer xo'jaliklari uchun qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi ham muhim omillardan biri sifatida qoralishi lozim.



Shu bois, Qashqadaryo viloyatida baliqchilikni rivojlantirish uchun suv resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, davlat tomonidan subsidiya va investitsiya dasturlarini kengaytirish hamda mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash kabi kompleks choralar ko'rilishi lozim bo'lib, ayniqsa, viloyatning iqlim sharoitini inobatga olgan holda baliq yetishtirishning innovatsion usullarini joriy etish va intensiv baliqchilik klasterlarini shakllantirish orqali Qashqadaryoning respublika bo'yicha baliqchilikdagi ulushini oshirish hamda iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida baliqchilik ishlab chiqarish hajmi 2010-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda sezilarli o'zgarishlarga uchrab, dastlabki yillarda nisbatan past bo'lgan ko'rsatkichlar keyinchalik jadal o'sish va so'nggi yillarda biroz pasayish tendensiyasini namoyon qilgan. Xususan, 2010-yilda viloyatda atigi 435 tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015-yilda qariyb to'rt baravarga oshib, 1 949 tonnaga yetgan, 2020-yilga kelib esa 5 425,2 tonnaga ko'tarilib (2-jadval), 2010-yilga nisbatan 12,5 baravar yoki 1 147% o'sishni qayd etgan. Keyingi yillarda nisbiy pasayish kuzatilib, 2021-yilda 5 309,8 tonna, 2022-yilda 5 446,3 tonna bo'lgan bo'lsa-da, 2023-yilda ushbu hajm 4 997,9 tonnaga, 2024-yilda esa 4 320,8 tonnaga tushib ketgan bo'lib, eng yuqori natija qayd etilgan 2020-yil bilan solishtirilganda 2024-yilga kelib ishlab chiqarish hajmi 20,3% ga qisqargan, ammo 2010-yilga nisbatan hali ham 9,9 baravar yoki 893% o'sish saqlanib qolgan. So'nggi yillardagi pasayish baliqchilik tarmog'ida ayrim muammolar, jumladan, tabiiy suv resurslarining kamayishi, iqtisodiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va bozor talablarining o'zgarishi bilan bog'liq.

2-jadval

**Qashqadaryo viloyati ma'muriy hududlar kesimida yetishtirilgan  
baliqlar to'g'risida ma'lumot (2010-2024-yillar, tonna)**

|                             | 2010  | 2015  | 2020    | 2021    | 2022    | 2023    | 2024    |
|-----------------------------|-------|-------|---------|---------|---------|---------|---------|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | 435   | 1949  | 5425,2  | 5309,8  | 5446,3  | 4997,9  | 4320,8  |
| <b>G'uzor</b>               | -     | 50,0  | 119,9   | 157,5   | 131,2   | 105,8   | 135,8   |
| <b>Dehqonobod</b>           | -     | 107,0 | -       | -       | 20,0    | 20,0    | 20,0    |
| <b>Qamashi</b>              | -     | 57,0  | 110,0   | 117,7   | 125,2   | 42,7    | 41,8    |
| <b>Qarshi</b>               | 376,0 | 996,0 | 557,7   | 254,6   | 253,8   | 255,6   | 149,4   |
| <b>Koson</b>                | -     | 9,0   | 68,0    | 62,0    | 138,6   | 174,8   | 220,1   |
| <b>Kitob</b>                | -     | 72,0  | 148,9   | 171,8   | 236,6   | 308,0   | 324,1   |
| <b>Mirishkor</b>            | 2,0   | 49,0  | 566,4   | 1 141,2 | 915,3   | 964,4   | 1 199,5 |
| <b>Muborak</b>              | 2,0   | 14,0  | 73,0    | 76,5    | 79,1    | 83,0    | 88,0    |
| <b>Nishon</b>               | 51,0  | 194,0 | 2 071,1 | 2 028,6 | 1 841,7 | 1 169,8 | 693,9   |
| <b>Kasbi</b>                | -     | 39,0  | 145,0   | 130,2   | 17,3    | 33,0    | 48,0    |
| <b>Ko'kdala</b>             | -     | -     | -       | -       | -       | 0,0     | -       |
| <b>Chiroqchi</b>            | -     | 82,0  | 517,0   | 584,9   | 309,0   | 377,8   | 332,8   |
| <b>Shahrisabz</b>           | 4,0   | 187,0 | 502,0   | 222,8   | 291,0   | 317,5   | 412,1   |
| <b>Yakkabog'</b>            | -     | 93,0  | 546,2   | 362,0   | 1 087,5 | 1 145,5 | 655,3   |

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Qashqadaryo viloyatida 2010–2024-yillar davomida baliqchilik ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ma'muriy hududlar kesimida turlicha kechgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishga qo'shgan hissasi bo'yicha tumanlarni uch guruhga ajratish mumkin. Ushbu guruhlanish orqali viloyatning baliqchilik tarmog'idagi yetakchi hududlarini, o'rtacha ishlab chiqarish hajmiga ega bo'lgan





tumanlarni hamda sust rivojlangan hududlarni tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bunda yetakchi tumanlar viloyat umumiy baliq yetishtirish hajmining 20–30% ni tashkil etgan bo'lsa, o'rtacha guruhdagi hududlarning ulushi 5–15% atrofida bo'lib, past ko'rsatkichli tumanlarning hissasi esa 1–3% doirasida qolgan.

Birinchi guruhga kiruvchi eng yuqori baliq yetishtiruvchi hududlar, ya'ni Nishon, Mirishkor va Yakkabog' tumanlari viloyat baliqchilik tarmog'ining asosiy drayverlari hisoblanib, ularning jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi eng katta. Masalan, Nishon tumani 2020-yilda 2 071,1 tonna baliq yetishtirib, viloyat umumiy hajmining 38% ini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 693,9 tonnaga tushib, 16% atrofida shakllangan. Mirishkor tumani esa 2024-yilda 1 199,5 tonna baliq ishlab chiqarib, viloyat umumiy baliqchilik hajmining 28% ga yaqinini ta'minlagan. Yakkabog' tumani 2022-yilda 1 087,5 tonna baliq yetishtirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 655,3 tonnaga qisqarib, viloyat umumiy hajmining qariyb 15% ini tashkil etgan. Ushbu tumanlarning ulushi katta bo'lishiga ularning tabiiy-geografik sharoiti, suv resurslari va baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha infratuzilmaning mavjudligi asosiy sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi guruhga kiruvchi o'rta baliq yetishtirish hajmiga ega hududlar, jumladan, Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi va Koson tumanlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha viloyatdagi muhim hududlar hisoblanadi. Masalan, Shahrisabz tumani 2024-yilda 412,1 tonna baliq ishlab chiqarib, viloyat umumiy baliqchilik hajmining 9,5% ini tashkil qilgan bo'lsa, Kitob tumani 324,1 tonna bilan 7,5% ulushga ega bo'lgan. Chiroqchi tumanining ulushi 332,8 tonna bilan taxminan 7,7% ni tashkil etgan bo'lsa, Koson tumani esa 220,1 tonna baliq ishlab chiqarib, viloyat umumiy baliqchilik hajmining qariyb 5% ini ta'minlagan. Ushbu hududlarning o'rta darajadagi ishlab chiqarish hajmiga ega bo'lishiga ularning tabiiy suv manbalaridan cheklangan foydalanishi, iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi va baliqchilikni rivojlantirish uchun qilingan investitsiyalar ta'sir ko'rsatgan.



Uchinchi guruhga kiruvchi eng past baliq yetishtiruvchi hududlar esa Dehqonobod, Ko'kdala va Kasbi tumanlari bo'lib, ularning viloyat baliqchilik tarmog'iga qo'shayotgan hisssasi minimal darajada qolmoqda. Masalan, Dehqonobod tumani 2024-yilda atigi 20,0 tonna baliq yetishtirib, viloyat umumiy baliqchilik hajmining 0,5% ini tashkil qilgan. Ko'kdala tumani esa 2023–2024-yillarda baliqchilik bilan umuman shug'ullanmagan, ya'ni ishlab chiqarish hajmi 0% ni tashkil etgan. Kasbi tumani esa 2024-yilda 48,0 tonna baliq yetishtirib, viloyat umumiy baliqchilik hajmining 1,1% ini tashkil qilgan. Ushbu hududlarda baliqchilikning sust rivojlanishiga suv resurslarining yetishmovchiligi, infratuzilmaning past darajadaligi hamda baliqchilik xo'jaliklari uchun yetarlicha iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining yo'qligi sabab bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida baliqchilik tarmog'i hududlar kesimida katta tafovutlarga ega bo'lib, ishlab chiqarish hajmining yuqori, o'rta va past darajadagi hududlar mavjud. Viloyatning umumiy baliqchilik hajmiga nisbatan yetakchi tumanlar Nishon, Mirishkor va Yakkabog' bo'lib, ularning ulushi 60% dan ortiqni tashkil etadi. O'rta ishlab chiqarish hajmiga ega tumanlar, jumladan, Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi va Koson viloyatning 30% atrofida baliq mahsulotlarini yetishtiradi. Eng past natijalarga ega hududlar esa Dehqonobod, Ko'kdala va Kasbi bo'lib, ularning umumiy ulushi atigi 2–3% ni tashkil etadi. Kelajakda baliqchilik tarmog'ini viloyat miqyosida barqaror rivojlantirish uchun suv resurslaridan samarali foydalanish, intensiv baliq yetishtirish texnologiyalarini keng joriy etish va tumanlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmini muvozanatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyatida baliqchilik sohasini rivojlantirish maqsadida, avvalo, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda suv havzalarining ifloslanishiga qarshi kurashish, qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilarining salbiy ta'sirini kamaytirish, monitoring tizimlarini yo'lga qo'yish, zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda intensiv baliq yetishtirish



usullarini rivojlantirish orqali yuqori hosildor va ekologik xavfsiz baliqchilik tizimini shakllantirish zarur bo'lib, shu bilan birga, zamonaviy oziqlantirish texnologiyalarini tadbiq etish, genetika va seleksiya asosida mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan, yuqori mahsuldor baliq turlarini yetishtirish, suv havzalari atrofida qayta ishlash zavodlari, saqlash va yetkazib berish infratuzilmasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirish va uni ichki hamda tashqi bozorlarga yetkazib berish tizimini takomillashtirish ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Shu bilan bir qatorda, baliqchilik sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish va aholining daromadlarini ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etib, shuningdek, baliqchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga eksport qilish uchun sifat va xavfsizlik standartlarini joriy etish, sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, oliy o'quv yurtlarida baliqchilik sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, ilg'or texnologiyalarni o'rgatish va amaliyotga tatbiq etish orqali sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'lib, bu chora-tadbirlar natijasida Qashqadaryo viloyatida baliqchilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Qashqadaryo viloyatida baliqchilikning rivojlanishi iqtisodiy-geografik jihatdan hududning tabiiy sharoitlari, suv resurslari, iqlim xususiyatlari hamda transport-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan chambarchas bog'liq. Viloyatda Qashqadaryo daryosi, sun'iy suv omborlari va buloq suvlari baliq yetishtirish uchun muhim resurs bazasini tashkil etsa, aholining demografik o'sishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash zarurati mazkur tarmoqning ahamiyatini yanada oshiradi. Hududning yirik transport yo'llari kesishmasida joylashgani baliq



mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga yetkazish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, baliqchilikning rivojlanishi qishloq joylarida bandlik darajasini oshirish, mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu bois, baliqchilik sohasi innovatsion texnologiyalar va klaster tizimi asosida rivojlantirilib, uzoq muddatli strategik rejalashtirish orqali viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga ko'mak berishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Крючков В.Г. Территориальная организация сельского хозяйства. (Проблемы и методы экономико – географического исследования). – М.: Мысль, 1978. – 268 с.
2. Лапкин К.И. Размещение и специализация сельскохозяйственного производства по зонам и районам Узбекской ССР. – Т.: Фан, 1988. – 390 с.
3. Носонов А.М. Территориальные системы сельского хозяйства (экономико – географические аспекты исследования). – М.: Янус-к, 2001. – 324 с.
4. Ракитников А.Н. Избранные труды – Под ред. В.Г.Крючкова. – Смоленск: Ойкумена, 2003. – 472 с.
5. Саушкин Ю.Г. Географическое мышление. – Смоленск: Ойкумена, 2011. – 218 с.
6. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт. – Т: Камалак, 2013. – 184 б.
7. Солиев А. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси). –Т.: Университет, 2014. – 404 б.
8. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги географияси (монография). – Қарши: Университет, 2019. -245 б.
9. Nurmatov Nurbek. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development // International

multidisciplinary journal for Research & development. - India, eISSN 2394-6334  
Volume 10, issue 12 (2023) P.439-442

10. Nurmatov N.E. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog'i rivojlanishiga ta'sirining asosiy xususiyatlari // "Экономика и социум" - Россия, № 2(117) 1 (февраль, 2024). С. 510- 517

11. Nurmatov Nurbek Ermat o'g'li. Chorvachilikni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy sharoit va resurs omillarining asosiy xususiyatlari // "O'zbekiston zamini" 2024 yil 4 – son. B. 69-71.

12. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors affecting livestock development in ensuring food security // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Belgiya. December 2024. P. 43-46

13. Faizullaev M.A. Main characteristics of the formation of a geographic conveyor in agricultural development // **Web of Scientist: International Scientific Research Journal**. Vol. 4 No. 2 (2023) – p. 89-92. ISSN 2776-0979

14. Faizullaev M.A. The main features of agricultural reforms in the development of the economy of Uzbekistan // «Science and education in Karakalpakstan» Science Magazine, ISSN 2181-9203 №1/1(30) – Nukus, 2023. – P. 119-121.

15. Fayzullayev M.A. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi. Monografiya. T.: Kitob bilim yog'dusi. 2024. – 258 bet.

16. <https://www.fao.org/newsroom/detail/fao-report-global-fisheries-and-aquaculture-production-reaches-a-new-record-high/ru>

